

## BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA HIKMATLARDAN FOYDALANISH ORQALI TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

### A.I.Djumayeva, Namangan viloyati Pop tumani 10-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Mamlakatimizda ta'limning uzluksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida o'qitiladigan umuta'lim fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida 6 ta tayanch kompetensiyalar hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda xususiy kompetensiyalar belgilandi. Mazkur kompetensiyalarni boshlang'ich sinflardan boshlab shakllantirish bugungi kunning asosiy talabi hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib oddiy savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish, orasta kiyinish, o'quvchilarning olgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olish, o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zini tutish, so'z boyligini shakllantirish, yurish-turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilishning dastlabki ko'nikmalari shakllantiriladi.

**Kommunikativ kompetensiya** – muloqotda muomala odobiga rioya qilish; suhbatdoshining fikrini tinglay olish, o'z fikrini tushuntira bilish; o'zini tuta olish; muloqotga kirishishda muomala madaniyatiga rioya qilish; muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilish kabi elementlarni o'z ichiga olib, bu suhbatlashish, til bilan bog'liq bo'lgan hikmatlarni o'rganish orqali namoyon bo'ladi. Masalan:

*Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib.*

*Tilingni avayla omondir boshing,*

*So'zingni avayla uzayar yoshing.*

**Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi** – kun tartibini to'g'ri tashkil qilish; o'zini xato va kamchiligini to'g'ri tushunish, o'zini nazorat qilish, xatolarini tuzatishga harakat qilish; halollik, to'g'rilik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik kabi sifatlarga ega bo'lish; yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlash, yaxshi fazilatlariga rioya qilish kabi elementlardan iborat. Ushbu sifatlarni o'quvchilarda shakllantirish jarayoni bevosita Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Abdulla Avloniy kabi buyuk mutafakkirlarning ijod namunalarini bo'lgan hikmatlaridan foydalanish yaxshi samara berishi isbotlangan.

*Yaxshining yaxshiligi tegar tor yerda*

*Yomonning yomonligi tegar har yerda.*

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi** - o'quvchilik burch va huquqlarini, vazifalarini bilish va ularga rioya qilish; muomala madaniyatiga amal qilish (kattaga hurmat, kichikka izzatda bo'lish kabi sifatlarga ega bo'lish); oiladagi o'z o'rnini hamda vazifalarini anglay olish; maktab binosi, sinfdagi jihozlar, mebellarni asrab-avaylash. *Yurt qo'risang o'zarsan, qo'rimasang to'zarsan.*

**Umummadaniy kompetensiyalar** – san'at asarlarini tahlil qilish; maktabning ichki tartib-qoidalariga rioya qilish; yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish; milliy qadriyatlar (milliy-madaniy an'analar, bayramlar, sayillar)ni bilish.

*Har bir kishining qadr-qimmatini o'z ishini qoyil qilib bajarishidir.* (Abu Rayhon Beruniy)

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi** - bir kunlik harajatlarini hisoblashni bilish; milliy o'yinlarimizning qanday paydo bo'lganligini bilish; o'quv qurollarini saranjom saqlash; oilasida nechta odam borligi, kim katta-yu, kim kichikligini bilish.

*Kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'l. Iqtisod qilgan kishi faqir bo'lmas.*

O'zbek xalqining avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyati hamda o'ziga xos an'analarini mustaqillik sharofati bilan saqlab qolishga erishildi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosini tiklash, milliy o'zlikni anglashni o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalaridan, uning ildizlariga qaytarishdan iborat uzviy tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Asosiysi, milliy odob-axloq, hikmatlar farzandlarimizni halol, pok, mehnatkash, ilmga intiluvchi, kattalarni, ayniqsa ota-onalarni hurmat qiladigan ma'naviy yetuk qilib tarbiyalaydi.